

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



“SAN’ATSHUNOSLIK” FAKULTETI

"TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI" KAFEDRASI

R A N G T A S V I R

fanidan

O`QUV – USLUBIY QO`LLANMA

Bilim sohasi: 100000 - gumanitar

Ta'lim sohasi: 110000 - Pedagogika

Bakalavriat yo`nalishi: 5110800 - Tasviriyl san'at va muhandislik grafikasi

Guliston – 2020

“Rangtasvir” o’quv-uslubiy qo’llanmasi “San’atshunoslik” fakulteti Ilmiy-uslubiy Kengashining 2020-yil “_27_” __08____dagi __1__-sonli majlisida tasdiqlandi.

Tuzuvchi: **N.Jumaboyev** – GDU “Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi” kafedrası o`qituvchisi

Taqrizchilar: **O.Inoyatov** – GDU “Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi” kafedrası mudiri

R.Xayrov – GDU “Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi” kafedrası o`qituvchisi

B.Usmonov – GDU “Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi” kafedrası o`qituvchisi

A.Berikbayev – GDU “Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi” kafedrası o`qituvchisi

MUNDARIJA

Annotatsiya	5
Kirish	6
Amaliy mashg'uloti mavzulari bo'yicha ishlanmalar	8
1-mavzu: Rangtasvir haqida tushuncha. Realistik rangtasvirning maqsad va vazifalari. Xolis fonda 2-3 geometrik jismlardan tuzilgan sodda natyurmort ishlash (Grizaylda)	8
2-mavzu: Gipsli geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini cheklangan ranglarda bajarish (Akvarel)	12
3-mavzu: Xolis fonda oddiy shakldagi uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish	16
4-mavzu: Qisqa muddatda uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish	19
5-mavzu: Kontrast fonda turli shaklli va har xil fakturalii buyumlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini bajarish	24
6-mavzu: Gipsli geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini cheklangan ranglarda bajarish (Akvarel)	28
7-mavzu: Sovuq tusli ranglardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish. (Akvarel)	32
8-mavzu: Guashda ishlash texnikasi. Sovuq ranglardan tashkil topgan natyurmortning rangtasviri	35
9-mavzu: Dekorativ natyurmort ishlashni o'rganish, har xil buyumlardan tashkil topgan natyurmortning rangtasviri	39
10-mavzu: Oq fonda oq bumlardan tashkil topgan natrmort ishlash	43
11-mavzu: Ma'lum ranglar gammasida gips rozetka bilan qo'yilgan natyurmortni ishlash	46
12-mavzu: Yorug'likka qarshi qo'yilgan mavzuli murakkab natyurmort kompozitsiyasini ishlash. "San'at atributlari" (gipsli bosh namunasi bilan).....	50
13-mavzu: Interyer ko'rinishini tasvirlash	55
14-mavzu: Oq fonda mevalardan tuzilgan natyurmort ishlash	58
15-mavzu: Turli buyumlardan tuzilgan natyurmort kompozitsiyasini kontrast fonda ishlash	62
16-mavzu: Murakkab bo'lmagan natyurmort kompozitsivasi moybo'yoqda ishlash	66
17-mavzu: Iliq tuslanishga ega bo'lgan kontrast rangli buyumlardan tuzilgan natyurmortni cheklangan ranglarda ishlash (moybo'yoq).....	70
18-mavzu: Sovuq tuslanishga ega bo'lgan natyurmort kompozitsivasi ishlash.....	73
19-mavzu: Ranglari bir-biriga yaqin bo'lgan buyumlardan tashkil topgan	77

natyurmort	
Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari.....	81
Glossariy.....	82
Test savollari.....	86
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	88
Ilovalar.....	89

ANNOTATSIYA

Rangtasvir fani bo'yicha tuzilgan ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma pedagogika oliy o'quv yurtlarining 5110800 - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan va u yo'nalishning o'quv rejasi hamda dasturiga to'la mos keladi. Uslubiy qo'llanmada kunduzgi bakalavr yo'nalishi fan mavzulari mazmunini yoritib beruvchi ma'lumotlar (test, terminlar izohli lug'ati, ijodiy ishlardan namunalar) mavjud.

O'quv-uslubiy qo'llanmadan Rangtasvir fani o'qitiladigan barcha ta'lim yo'nalishlarining talabalari ham foydalanishlari mumkin.

KIRISH

Rangtasvir – qalamtasvir, amaliy san’at kabi tasviriy san’at fanlariga; asosiy zamin bo‘lib xizmat qilib, bo‘lajak pedagog rassomlarga borliqni ko‘rib- kuzatib to‘g‘ri tasvirlash, muhitni undagi ranglarni idrok etish, qo‘l, ong va sezgilarini shakllantirish hamda bo‘lajak rassom-pedagoglarni tasviriy san’at asoslariga o‘rgatishni maqsad qilib qo‘yadi.

Ushbu dastur pedagogika oliy o‘quv yurtlari, tasviriy san’at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda tasviriy san’atning asosi bo‘lgan rangtasvirning kelib chiqish tarixi va rivojlanishi, tasviriy san’at qonun-qoidolari, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini pedagogik jarayonga puxta tayyorlashda rangtasvirning ahamiyati haqida so‘z boradi. 5110800-tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi mutaxassisi mazkur fanni puxta o‘rganishi dolzarb hisoblanadi

Fanni o‘qitishdan maqsad - rangtasvir -barcha tasviriy san’at turlarining; asoslaridan biri sifatida kelajakda tasviriy san’at o‘qituvchisini rangtasvir fani nazariyasi va amaliy ko‘nikmalari bilan qurollantirish, ijodiy qobiliyatini o‘stirish, tasviriy san’atga mos bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, hamda pedagogik faoliyatga puxta tayyorlashdan iboratdir.

Fanni o‘qitishning vazifasi - bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini badiiy jihatdan tarbiyalash, ularning badiiy didlarini yuksaltirish, tasviriy san’at asarlari bilan chuqur tanishtirish, ularni nafosat borasidagi fikr va mulohazalarini yuksaltirish, tasviriy san’at asarlarini ko‘rish va tushunish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat. Shuningdek, talabalarga, bo‘lajak rassom-pedagoglarga ko‘rib-kuzatib, tahlil qilib to‘g‘ri tasvirlash, atrof-muhitni, borliqni idrok etish, rang sezish, rangtasvir asarlarini yaratish malakalarini shakllantirishdan iboratdir. Realistik rangtasvir ishlash san’ati borliqni haqqoniy obrazlarda ifoda etish mahoratini rivojlantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Fan bo‘yicha talabalarining bilimiga, ko‘nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi. **Bakalavr:**

- rangtasvirning tasviriy san’atda tutgan o‘rni;
- rangtasvir mashg‘ulotlarini o‘tishda tasviriy san’at asoslari, kompozitsiya qonuniyatlari, chiziqli, havo, perspektivalari, ufq tekisligi siluet, konstruktsiya, masshtab, nisbatlar, materiallar xususiyatlari, rang-tus, yorug‘-soya qonuniyatlari, turli tasvirlash vositalaridan foydalanish to‘g‘risida **bilimga;**

- rangtasvir darslarini rejalashtirish: natyurmort, portret, odamning turli holatlaridan postanovkalar tashkil etish, uni rangda tasvirlash texnologiyalari, uslublari, talabalarga rangtasvir mashg‘ulotlarini tashkil etish, san’at asarlarini kompozitsion, rang va mazmun jihatdan tahlil eta olish, yaxshi o‘zlashtiruvchi va

boshlovchi o'quvchilar bilan individual darslar olib borish, ular ijodiy ishlarini baholay olish ***ko'nikmalariga;***

- tasviriy san'at tarixi va nazariyasi, rangshunoslik, kompozitsiya qonuniyatlari va plastik anatomiya, portret xarakteristikasi va psixologik echim, o'quv va akademik rangtasvir ishlash metodlari va metodologik asoslari, rangtasvir ishlash texnologiyasi, oddiy narsalarni bitta rang bilan grizaylda ishlashdan murakkab ko'rinishlarni butun ranglar ko'lamida tasvirlay olish, rangtasvir kompozitsiyasi, tasviriy san'at asarlarini yaratishda rangtasvirning ahamiyati haqida shaxsiy fikrga ega bo'lish, turli tasvirlash vositalarida kompozitsiyalar tuzish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

AMALIY MASHG'ULOTI MAVZULARI BO'YICHA ISHLANMALAR

1-mavzu	Rangtasvir haqida tushuncha. Realistik rangtasvirning maqsad va vazifalari. Xolis fonda 2-3 geometrik jismlardan tuzilgan sodda natyurmort ishlash (Grizaylda)
----------------	-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

MASHG'ULOTNING O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Vaqti – 10 soat		talbalar soni _____ nafar
O'quv mashg'ulotining shakli		amaliy
Mashg'ulotining rejasi	1.Rangtasviri maqsad va vazifalari. Natyurmort Mavzusi asosida ishlash masalalari. 1-ilova 2. Rangtasvirga qo'yiladigan talablar. 2-ilova 3. “FSMU” uslubi. 3-ilova 4. Adabiyotlar bilan ishlash 4-ilova	
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarga grizayl usulida natyurmort ishlash ko'nikma va malakalarini beradi. Eskizlar ishlashni o'rgatadi		
Pedagogik vazifalar: Rangtasvir haqida tushuncha beradi. Rangtasvirda mavzu asosida ishlash usullarini o'rgatadi. Rangtasvirga qo'yiladigan talablarni o'rgatish.		O'quv faoliyatining natijalari: Rangtasviri va kompozitsiya haqida tushunchaga ega bo'ladi. Rangtasvir asosida ishlashni o'rganadi. Rangtasvirga qo'yiladigan talablarni bilib oladi
O'qitish uslubi va texnikasi		Amaliy ish, master klass texnologiyasi
O'qitish vositalari		O'quv uslubiy kompleks, o'quv qo'llanma, tarqatma materiallar, ko'rgazmali plakatlar, slaydlar.
O'qitish shakli		Guruh bo'lib ishlash.
O'qitish shart-sharoitlari		Kompyuter va multimediali vositalar bilan jihozlangan auditoriya va asbob-uskuna, materiallar bilan jihozlangan ustaxona [3.3.]
Monitoring va baholash		Mashg'ulot bo'yicha savol-javob, tahlil natijalari.

AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Magistr
1-bosqich Kirish	1. Rangtasvirning maqsad va vazifalari. Rangtasvirda mavzu asosida natyurmort ishlash masalalari haqida ma'lumot beradi. 1-ilova	Rangtasvirning maqsad va vazifalari. Rangda mavzu asosida natyurmort ishlash masalalari haqida ma'lumot beradi
2-bosqich. Asosiy	2. Ekranda natyurmortga qo'yiladigan talablar haqida namoyish qiladi va ularga qisqacha ta'rif beradi (2-ilova).	Ekranga rangtasvir faniga qo'yiladigan talablar haqida namoyishni ko'radi.
	3. Mavzu bo'yicha Adabiyotlar bilan ishlash uchun ro'yhat beradi (3-ilova)	3. Mavzu bo'yicha Adabiyotlar bilan tanishadi.
3-bosqich Yakuniy	Darsga yakun yasab, mavzu bo'yicha uyga vazifa beradi	Mavzu bo'yicha uyga vazifa oladilar.

Rangtasvir haqida umumiy tushuncha (I-ilova)

Rangtasvir deb tekis yuzada turli rang va materiallar yordamida bajariladigan tasvirga aytiladi. Unga asosan bo'yoqlar - moyli bo'yoq, akvarel, guash, tempera shuningdek, rangli qalamlar, ko'mir, qalam, pastel, sous, sangina kabi badiiy materiallar bilan ishlash xarakterlidir.

Rangtasvir asarlari qog'oz, mato, karton, devor, oyna, yog'och kabi tekis yuzlarga ishlanadi.

Rangtasvir asosini rasm tashkil etadi. Har qanday rangtasvir ishda avval uni rasmi ishlab olinadi. Unda kompozitsiya, yorug'soya, rang asosiy o'rinni egallaydi.

Rangtasvir asarlari bajarilishi texnikasi jihatdan turli-tuman bo'ladilar. Ular moy bo'yoqli, temperali, freskali, mozaikali, vitrajli, akvarelli, guashli, pastelli hisoblanadilar.



Rangtasvirning quyidagi turlari mavjud: 1.Dastgohli rangtasvir. 2.Monumental rangtasvir. 3.Miniatyura rangtasviri. 4.Dekorativ rangtasvir. 5.Teatr-dekorativ rangtasviri.

Dastgohli rangtasvir deganda rassomlarning maxsus asbob-dastgox (molbert) yordamida ishlaydigan suvratlari tushuniladi. Dastgohli rangtasvir asarlari uncha katta bo'lmagan o'lchovda yuqorida qayd qilib o'tilganidek mato, karton, oyna, faner kabi tekis yuzali materiallarga moybo'yoq, akvarel, guash, tempera bo'yoqlari bilan ishlanadi. Bunda ko'pincha moybo'yoq qo'llaniladi.

Monumental rangtasvir atamasi monumental (maxobatli), ya'ni katta o'lchovdagi, rangtasvir ma'nosini anglatadi va u ko'pincha binolarning ichki va tashqi devorlariga tempera bo'yoqlari bilan ishlanadi.

Monumental rangtasvir asarlarining freska, mozaika, vitraj, panno kabi turlari mavjud.

Freskalar asosan bino devorlariga, pannolar esa matolarga bo'yoqlar bilan ishlanadi.

Mozaika - turli tabiiy va tashlandiq materiallar-rangli oyna parchalari, toshlar, sintetik materiallardan bino devorlariga yoki tekis materiallar ustiga ishlanadi.

Vitraj esa binolarning derazalari, eshiklari, oynalari ustiga bo'yoqlar yordamida ishlanadi. Vitrajlar uy ichkarisi va tashqarisidan ham bir xil ko'rinadi.

Minatyura (mo''jaz) rangtasviri deganda bejirim, juda kichik, jaji, nozik san'at asarlari tushuniladi. Miniatyura rangtasviri o'rta asrlarda kitob bezagi bilan bog'liq holda rivoj topdi. U kitoblardagi bosh, yakuniy bezak, zarxal xarf, illyustratsiyalardan iborat bo'lgan. Rangtasvirning bu turi Sharqda, shu qatori Movaraunnahrda katta shuhrat qozondi. Hozirda u mustaqil san'at turi sifatida nafaqat kitoblarni, balki quticha, nosqovoq kabilarni bezatishda ham qo'llanilmoqda. Shuningdek, u katta bo'lmagan o'lchovda mustaqil san'at asari sifatida ham tayyorlanmoqda.

Dekorativ rangtasvir asarlari mustaqil amaliy ahamiyat kasb etib, u binolarni ichki va tashqi devorlarni bezatishda qo'llaniladi. Ular panno shaklida shuningdek, quticha, padnis, sandiq, shkaflarni bezatishda qo'l keladi. Bino ichini bezatishga xizmat qiladigan naqshlar, frizlar, namoyon kabi mayda elementlar ham dekorativ rangtasvirga kiradi.



Rangtasvirni puxta o'rganishda ko'pgina etuk rassom va pedagoglar (oq va qora bo'yoqlarda) naturani tusda tasvirlashga katta ahamiyat berganlar. Bu masalada D.N. Kardovskiy shunday degan: "Tusni yorug'lik orqali etkazishdan ko'ra ranglarda berish murakkabdir. Shuning uchun rangtasvirga o'tishda, yorug'likdagi tusga bo'lgan ko'nikmaga ega bo'lish kerak...". Demak, rangtasvirning boshlang'ich kursida grizayl texnikasida mashqlar bajarishni tavsiya qilamiz.

Tasvir qalamda puxta bajarilgach, har bir narsa va buyumning materialligi, uning hajmi, tus munosabatlari ranglar vositasida hal qilishga o'tiladi. Realistik qalamtasvirning bunday sifatlari har bir narsalardagi (shula, yorug'lik, yarim soya, soya va h.k.) soya-yorug'lik gradatsiyasi va ularning ranglardagi o'zaro tusli farqlarini to'g'ri hal etish orqali erishish mumkin. Tusli farqlar nimani anglatadi? Rang jihatidan ba'zi narsalar naturada zich va to'qroq, boshqalari esa ochroq

ko'rinadi. Ayrim narsalarda shaxsiy soya to'qroq va zichroq "og'ir" (masalan, chinni ko'zada, cho'yan qozonda), boshqalarida esa soyalar ancha ochroq "nozik" (gipsli vaza, qog'oz rulon va h.k.) ko'rinadi. Bu tusli farqlarni qalamtasvirda ham teng ravishda mutanosiblikda ifodalash kerak. Bu chog'da narsalar orqasidagi fonni ham hisobga olish zarur. Natura qo'yilmasidagi barcha narsalarni tusga nisbatan fonning och-to'qligi munosabatlarining to'g'ri olinayotganligi kenglikni ko'rsatishga imkon tug'diradi.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari (2-ilova)

“Akvarel” bo'yog'ida ishlashda asosan qanday qog'ozlar ishlatiladi?	*Tarshon	vatman	kardon
Quyidagi ranglardan qaysi biri xromatik ranglar guruxiga kiradi	* Qizil	Qora	Oq
“Drapirovka” nima?	*Mato	Detal	Buyum
Bir-biridan rang va tush jixatidan keskin ajralib turuvchi bo'yoq xillari qanday nomlanadi	* Kontrast ranglar	Axramatik ranglar	Xromatik ranglar
“Qora kofe” nomli natyumort kimning qalamiga mansub?	*L.Salimjonova	M.To'xtaev	N.Kashina

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Savol	“Rangtasvir” faning predmeti va mazmuni to'g'risida nimalarni bilasiz?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

Adabiyotlar ro'yxati (3-ilova):

1. S.Abdirasilov, N.Tolipov Rangtasvir. Innovatsiya ziyo, T. 2019

2. S.Abdirasilov, N.Tolipov Rangtasvir. "Poligraf", T. 2017
3. G'.Abduraxmonov. Kompozitsiya asoslari. "Iqtisod-moliya", T. 2010

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdnu.uz
2. www.ZivoNet.Uz
3. www.edu.uz
4. tdpu-internet.ped

Mavzu yuzasidan uyga vazifa (**4-ilova**):

Uy jihozlardan tashkil topgan sodda natyurmort rasmini qog'oz yuzasida to'g'ri tasvirlash, uning konstruktiv tuzilishlarini hisobga olish. Tasvirning yorug' va soyalarini aniqlab, rang berish.

2-mavzu	Gipsli geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini cheklangan ranglarda bajarish (Akvarel)
----------------	------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

MASHG'ULOTNING O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Vaqti – 14 soat		talbalar soni _____ nafar
O'quv mashg'ulotining shakli		amaliy
Mashg'ulotining rejasi	1. Gipsli geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini cheklangan ranglarda bajarish. Natyurmort mavzusi asosida ishlash masalalari. 1-ilova 2. Rangtasvirga qo'yiladigan talablar. 2-ilova 3. “FSMU” uslubi. 3-ilova 4. Adabiyotlar bilan ishlash 4-ilova	
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarga gipsli natyurmortni cheklangan ranhlarda ishlash ko'nikma va malakalarini beradi. Eskizlar ishlashni o'rgatadi		
Pedagogik vazifalar: Gipsli geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini cheklangan ranglarda bajarish haqida tushuncha beradi. Rangtasvirda mavzu asosida ishlash usullarini o'rgatadi. Rangtasvirga qo'yiladigan talablarni o'rgatish.		O'quv faoliyatining natijalari: Gipsli geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini cheklangan ranglarda bajarish haqida tushunchaga ega bo'ladi. Rangtasvir asosida ishlashni o'rganadi. Rangtasvirga qo'yiladigan talablarni bilib oladi
O'qitish uslubi va texnikasi		Amaliy ish, master klass texnologiyasi
O'qitish vositalari		O'quv uslubiy kompleks, o'quv qo'llanma, tarqatma materiallar, ko'rgazmali plakatlar, slaydlar.
O'qitish shakli		Guruh bo'lib ishlash.
O'qitish shart-sharoitlari		Kompyuter va multimediali vositalar bilan jihozlangan auditoriya va asbob-uskuna, materiallar bilan jihozlangan ustaxona

Monitoring va baholash	Mashg'ulot bo'yicha savol-javob, tahlil natijalari.
-------------------------------	-----------------------------------------------------

AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Magistr
1-bosqich Kirish	1. Rangtasvirda mavzu asosida natyurmort ishlash masalalari haqida ma'lumot beradi. 1-ilova	Rangda mavzu asosida natyurmort ishlash masalalari haqida ma'lumot beradi
2-bosqich. Asosiy	2. Ekranda natyurmortga qo'yiladigan talablar haqida namoyish qiladi va ularga qisqacha ta'rif beradi (2-ilova).	Ekranga rangtasvir faniga qo'yiladigan talablar haqida namoyishni ko'radi.
	3. Mavzu bo'yicha Adabiyotlar bilan ishlash uchun ro'yhat beradi (3-ilova)	3. Mavzu bo'yicha Adabiyotlar bilan tanishadi.
3-bosqich Yakuniy	Darsga yakun yasab, mavzu bo'yicha uyga vazifa beradi	Mavzu bo'yicha uyga vazifa oladilar.

Geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmort haqida umumiy tushuncha (1-ilova)

Geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmort rasmini qog'oz yuzasida to'g'ri tasvirlash. Rasm ishlashda uning konstruktiv tuzilishlarini hisobga olish. Tasvirning yorug' va soyalarini aniqlab, rang berish.

Sovuq tusda berilgan sodda natyurmortni tasvirlash dastlabki ta'lim bosqichlarida bajarish orqali o'zlashtirish mumkin. Masalan, N.Tenning "Natyurmort" asari misol bo'la oladi. Unda mahoratli bo'yoq surtmasi, kolorit monandligi va shakl plastikasini kuzatish mumkin. Ular orqali rangtasvirning asosiy qonuniyatlarini tez va qulay o'zlashtirish mumkin. Ya'ni, perspektiv va konstruktiv qurilish, shaklning soya-yorug'ligi va rangda tasvirlanishi, tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy uzoqlashishdagi holati va materialligi, tus va rang munosabatlari, manzara va interer, inson boshi va qomatini tasvirlashdagi birlik va uyg'unlik hisoblanadi.

Natyurmortni xona ichida, ochiq havoda, soyada va quyoshda, tabiiy va sun'iy yorug'likda tasvirlash lozim. Bu esa o'z navbatida o'quv va ijodiy vazifalarni samarali amalga oshirishga puxta zamin yaratadi.

Natyurmortni amaliy tasvirlashning dastlabki bosqichida biroz soddaroq so'ngra esa narsa va buyumlarning bir guruhini tasvirlash kerak. Narsalarning bir guruh yig'ilganini tasvirlash uchun natyurmort kompozitsiyasini to'g'ri tashkil etish muhimdir. U ikki jihat asosida tuziladi: natura qo'yilmasini tashkiliy qismi (narsalarni tanlay bilish va ularni kompozitsion chiroyli joylashtirish) naturaga nisbatan ko'rish nuqtasini aniqlash va qog'oz yuzasida qo'yilmani tasvirlash.

O'quv natyurmort qo'yilmasini tuzishda quyidagi qonun-qoidalarga rioya qilish kerak. Har bir o'quv natyurmortning mazmuni rangtasvir dasturida ko'rsatilganidek aniq maqsad va vazifaga ega bo'lishi kerak. Talabalar natura qo'yilmasini tasvirlash jarayonida aynan qanday nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini tasavvur eta olishimiz kerak. O'quv vazifalardan tashqari, natyurmort estetik talablarga ham javob berishi kerak: buyum va narsalar

aynan mavzuga oid bo'lishi, mazmun jihatdan ma'noli va ta'sirchan bo'lishi va ma'lum g'oyani ilgari surishi kerak.

O'quv natyurmorti ijodiy natyurmortdan vazifasi bilan farqlanadi: o'quv vazifa muvaffaqiyatli echim topishi uchun narsalar saralanadi, guruhlashtiriladi va shunday yoritiladiki, qo'yilma natijali yakunlanadi. O'quv natyurmortida biroz bo'lsada shartli olinishiga imkon yaratiladi.



Natyurmort kompozitsiyasi ustida odatda narsalardan natura qo'yilmasini tuzmasdan ilgari fikrlar yurgiziladi. O'quv yoki ijodiy vazifalar asosida rassom ongida bo'lajak natura qo'yilmasining xomaki obrazi haqida tasavvur hosil bo'ladi. Natyurmortni tuzish mobaynida shakli mayda naqshlar bilan bezatilgan, konstruktsiyasi murakkab narsalardan yiroqda bo'lgan ma'qul. Murakkab buyumlarga burmali issiq rangdagi gazlamani kiritish mumkin. Natyurmort qo'yilmasi haddan tashqari murakkab shaklli va rang jihatdan rang-barang bo'lishi qo'yilmadagi rang munosabatlar mohiya-tini tushunishga qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun oq ranlardagi buyumlardan tashkil topgan natyurmortni maqsad qilib olamiz. Natyurmort qo'yilmasini ufq chizig'iga nisbatan pastda joylashgani ma'qul, chunki buyum va narsalarning ostki qismi (ularning asosi) stol ustida aniq ko'rinib turishi kerak. Agar narsalarning asosi bir chiziq bo'yicha qo'yilsa, stol yuzining gorizontall tekisligi ko'rinmay qoladi, bu esa natyurmortni fazoviy echimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari (2-ilova)

“Natyurmort” so'zining ma'nosi	*Jonsiz tabiat	Buyumlar	Drapirovka
“Pompeyning so'ngi kuni” asari mualifi kim?	*K.Bryulov	P.Fedotov	I.Ivanov
“Spitamen qo'zg'oloni” asari mualifi kim?	*M.Nabiev	R.Choriev	A.Abdullaev
«Grafika» so'zi lotincha nimani anglatadi ?	*yozaman	o'lchayman	yasayman
«Grizayl» so'zining ma'nosi nima?	*kul rang	xavo rang	qizil rang

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Savol	“Rangtasvir” faning predmeti va mazmuni to'g'risida nimalarni bilasiz?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

Adabiyotlar ro'yxati (3-ilova):

1. S.Abdirasilov, N.Tolipov Rangtasvir. Innovatsiya ziyo, T. 2019
2. S.Abdirasilov, N.Tolipov Rangtasvir. “Poligraf”, T. 2017
3. G'.Abduraxmonov. Kompozitsiya asoslari. “Iqtisod-moliya”, T. 2010

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdnu.uz
2. www.ZivoNet.Uz
3. www.edu.uz
4. tdpu-internet.ped

Mavzu yuzasidan uyga vazifa (4-ilova):

Geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmort rasmini qog'oz yuzasida to'g'ri tasvirlash. Rasm ishlashda uning konstruktiv tuzilishlarini hisobga olish. Tasvirning yorug' va soyalarini aniqlab, rang berish.

Tasvirlash jarayonida alohida narsalarni va ularning qismlarini katta-kichikligini har doim bir-biriga taqqoslab borish zarur. Rang bilan ishlash jarayonida shakllarning xarakteriga aniqlik kiritib borish zarur. Tasvirlash jarayonida ishni boshidan oxirigacha, albatta, metodik ketma-ketlikka rioya qilish muhimdir.

3-mavzu	Xolis fonda oddiy shakldagi uy-ro‘zg‘or buyumlardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish
----------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------

MASHG‘ULOTNING O‘QITISH TEXNOLOGIYASI


Vaqti – 14 soat		talbalar soni _____ nafar
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>		amaliy
<i>Mashg'ulotining rejasi</i>	1. Xolis fonda oddiy shakldagi uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish. Natyurmort mavzusi asosida ishlash masalalari. 1-ilova 2. Rangtasvirga qo'yiladigan talablar. 2-ilova 3. “FSMU” uslubi. 3-ilova 4. Adabiyotlar bilan ishlash 4-ilova	
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarga Xolis fonda oddiy shakldagi uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish ko'nikma va malakalarini beradi. Eskizlar ishlashni o'rgatadi		
<i>Pedagogik vazifalar:</i> Xolis fonda oddiy shakldagi uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish haqida tushuncha beradi. Rangtasvirga qo'yiladigan talablarni o'rgatish.		<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Xolis fonda oddiy shakldagi uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish haqida tushunchaga ega bo'ladi. Rangtasvir asosida ishlashni o'rganadi. Rangtasvirga qo'yiladigan talablarni bilib oladi
<i>O'qitish uslubi va texnikasi</i>		Amaliy ish, master klass texnologiyasi
<i>O'qitish vositalari</i>		O'quv uslubiy kompleks, o'quv qo'llanma, tarqatma materiallar, ko'rgazmali plakatlari, slaydlar.
<i>O'qitish shakli</i>		Guruh bo'lib ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>		Kompyuter va multimediali vositalar bilan jihozlangan auditoriya va asbob-uskuna, materiallar bilan jihozlangan ustaxona
<i>Monitoring va baholash</i>		Mashg'ulot bo'yicha savol-javob, tahlil natijalari.

AMALIY MASHG‘ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Magistr
1-bosqich Kirish	1. Rangtasvirda mavzu asosida natyurmort ishlash masalalari haqida ma’lumot beradi. 1-ilova	Rangda mavzu asosida natyurmort ishlash masalalari haqida ma’lumot beradi
2-bosqich. Asosiy	2. Ekranda natyurmortga qo‘yiladigan talablar haqida namoyish qiladi va ularga qisqacha ta’rif beradi (2-ilova).	Ekranga rangtasvir faniga qo‘yiladigan talablar haqida namoyishni ko‘radi.
	3. Mavzu bo‘yicha Adabiyotlar bilan ishlash uchun ro‘yhat beradi (3-ilova)	3. Mavzu bo‘yicha Adabiyotlar bilan tanishadi.
3-bosqich Yakuniy	Darsga yakun yasab, mavzu bo‘yicha uyga vazifa beradi	Mavzu bo‘yicha uyga vazifa oladilar.

Xolis fonda oddiy shakldagi uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish haqida umumiy tushuncha (1-ilova)

Bu o'quv dars jarayonida qo'yilgan narsa, predmet va buyumlar drapirovka, ya'ni material bilan rangda bir-biri bilan bog'langan holda ishlash metodikasi o'rgatiladi. Natyurmort tasviriy san'at maktabining asosi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Natyurmort (f.r nature morte - o'lik, natura - tabiiy fransuz tilidan so'zma-so'z tarjimasini) - tasviriy san'atda bir maqsadga xizmat qiladigan jonsiz narsalardan kompozitsiya sahnalashtirib tasvirlash janri.



Aslida natyurmort rangtasvir va qalam tasvirni o'zlashtirishning qat'iy qonunlari (konstruktiv va havo perspektivasi) uchun mutanosibligi, hajmi (materialnost) (narsadan ishlanganligi) uchun joylanishi, rang uyg'unligining umumiyli, tasvirlanayotgan narsa va o'rtaning o'ziga xos o'zgarishligini tasvirlash uchun estetik xususiyatlari va jozibadorligini aks ettirishdir. Natyurmort rassomning mohirona ko'rish idrokli ("ko'zning o'tkirligini") ko'rishni to'g'ri qo'yish mahoratini oshiriladi. Natyurmort hamma janrlarning debochasidir. Shuning uchun o'sma mohir rassomlar jiddiy asar yaratishdan oldin boshqa janrlarda: manzara, portret va hokazo natyurmortlarni chizadilar.



Natyurmort orqali haqiqiy dunyoning ko'p qirraligi o'rganiladi. Davrning tarbiyaviy-estetik talablariga mosligi bilan birga natyurmortdagi zamondoshimizning dunyo go'zalligiga qarash tasavuri va ichki dunyosining boyligi, shu bilan birga odamning keng qalbiy his-tug'ulari aks ettiriladi. Uning o'zini ko'rib turgan dunyoga bo'lgan munosabati ham namoyon bo'ladi.

Rangtasvirning plastik va koloristik mahorat qirralari yaqqol ko'rinadi. Natyurmortni ko'r - ko'rona mexanik tarzda jonsiz narsalarni ko'chirgandek qog'oz yuzasiga ko'chirib qo'yish kerak emas. Faol mualliflik munosabati bo'lishi kerak, naturaga nisbatan uning o'xshashligi bilan birga undagi o'ziga xos nafisligini g'oyaviy - san'at asari darajasiga olib chiqish zarur.

Har bir buyum hayotda o'zining "yashash joyi" va biror bir maqsadda ishlatiladi. Uni boshqacha sharoitdan o'rtaga joylashtirsa, u boshqa buyumlarning uyg'unligini buzadi.

Shuning uchun natyurmortni qo'yganda har bir buyum o'z joyini topishi sahnalashtirilgan to'plangan buyumlar orasida va o'zaro bir-birini to'ldirib, ma'naviy boyitishi va umumiy ko'zlangan g'oyaviy maqsadni aniq ochib berishga xizmat qilishi kerak.

Natyurmort dag'al, qo'pol narsalar yig'indisi bo'lishi kerak emas. Sujetli - tematik yo'nalishli narsalarni saralab tanlab, natyurmort tashkil qilishda uning plastik - rangtasvir echimadagi xulq-atvorini aniqlab beradi, oydinlashtiradi. O'quv-metodik natyurmortlarda hamma natyurmortlarda bo'ladigan majburiyatlar baravariga berilmasligi mumkin va asta-sekinlik bilan beriladi. Masalan: bir natyurmortda qarama-qarshi ranglarning uyg'unligini berish, buyumlarning qo'shnichiligidagi lekin rangtasviri - plastik umumiylik, ma'noning birdamligi yo'qolmasligi kerak. Natyurmort qimmatbaho va juda chiroyli buyum bo'lishi shart emas, aksincha u buyum shakli shamoyili oddiy odamlar ishlatgan bo'lsa, maqsadga muvoviq bo'ladi. U misol uchun samovar, choy idishi, idishlar majmuasi, gullar, tosh oyna, siyohdon, kartoshka, qora non va hokazo.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari (2-ilova)

«Qadimgi Shark» iborasi deb qaysi mintaqaga nazarda tutiladi?	*Xitoydan kadimgi Rimgacha bo'lgan mintaq.	Qadimgi Grek Rim davlatlaridan Sharkda va Janubda joylashgan grafik mintaq.	Kuldorlik davridagi xamma davlatlar
«Ko'chma ko'rgazmalar birodarligi» ga a'zo bo'lgan va unda ijod etgan rassomlar qanday nom olgan?	*« Sayyor rassomlar »	« Ko'chmanchi rassomlar »	« Revolyutsion rassomlar »
«Mona Liza» asari muallifini ko'rsating?	*Leonardo da Vinchi	Mikelanjelo	A. Dyurer
«Monumental» so'zining ma'nosi nima?	*katta o'lchamli	kichik o'lchamli	tashviqot
«Renessans» so'zining ma'nosi	*uyg'onish davri	rassomlar davri	inqiroz davri

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish

madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Savol	“Rangtasvir” faning predmeti va mazmuni to'g'risida nimalarni bilasiz?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

Adabiyotlar ro'yxati (3-ilova):

1. S.Abdirasilov, N.Tolipov Rangtasvir. Innovatsiya ziyo, T. 2019
2. S.Abdirasilov, N.Tolipov Rangtasvir. “Poligraf”, T. 2017
3. G'.Abduraxmonov. Kompozitsiya asoslari. “Iqtisod-moliya”, T. 2010

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdnu.uz
2. www.ZivoNet.Uz
3. www.edu.uz
4. tdpu-internet.ped

Mavzu yuzasidan uyga vazifa (4-ilova):

Uy jihozlaridan tashkil topgan sodda natyurmort rasmini qog'oz yuzasida to'g'ri tasvirlash, uning konstruktiv tuzilishlarini hisobga olish. Tasvirning yorug' va soyalarini aniqlab, rang berish.

4-mavzu	Qisqa muddatda uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish
----------------	------------------------------------------------------------------------------------------------

MASHG'ULOTNING O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Vaqt – 16 soat	talbalar soni _____ nafar
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	amaliy
<i>Mashg'ulotining rejasi</i>	1. Qisqa muddatda uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil

	topgan natyurmort rangtasvirini bajarish. Natyurmort mavzusi asosida ishlash masalalari. 1-ilova 2. Rangtasvirga qo'yiladigan talablar. 2-ilova 3. "FSMU" uslubi. 3-ilova 4. Adabiyotlar bilan ishlash 4-ilova
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarga Qisqa muddatda uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish ko'nikma va malakalarini beradi. Eskizlar ishlashni o'rgatadi	
Pedagogik vazifalar: Qisqa muddatda uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish haqida tushuncha beradi. Rangtasvirda mavzu asosida ishlash usullarini o'rgatadi. Rangtasvirga qo'yiladigan talablarni o'rgatish.	O'quv faoliyatining natijalari: Qisqa muddatda uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish haqida tushunchaga ega bo'ladi. Rangtasvir asosida ishlashni o'rganadi. Rangtasvirga qo'yiladigan talablarni bilib oladi
O'qitish uslubi va texnikasi	Amaliy ish, master klass texnologiyasi
O'qitish vositalari	O'quv uslubiy kompleks, o'quv qo'llanma, tarqatma materiallar, ko'rgazmali plakatlari, slaydlar.
O'qitish shakli	Guruh bo'lib ishlash.
O'qitish shart-sharoitlari	Kompyuter va multimediali vositalar bilan jihozlangan auditoriya va asbob-uskuna, materiallar bilan jihozlangan ustaxona
Monitoring va baholash	Mashg'ulot bo'yicha savol-javob, tahlil natijalari.


AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Magistr
1-bosqich Kirish	1. Qisqa muddatda uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish haqida ma'lumot beradi. 1-ilova	Rangda mavzu asosida natyurmort ishlash masalalari haqida ma'lumot beradi
2-bosqich. Asosiy	2. Ekranda natyurmortga qo'yiladigan talablar haqida namoyish qiladi va ularga qisqacha ta'rif beradi (2-ilova).	Ekranga rangtasvir faniga qo'yiladigan talablar haqida namoyishni ko'radi.
	3. Mavzu bo'yicha Adabiyotlar bilan ishlash uchun ro'yhat beradi (3-ilova)	3. Mavzu bo'yicha Adabiyotlar bilan tanishadi.
3-bosqich Yakuniy	Darsga yakun yasab, mavzu bo'yicha uyga vazifa beradi	Mavzu bo'yicha uyga vazifa oladilar.

Qisqa muddatda uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish haqida umumiy tushuncha (1-ilova)

Avvalo, qo'yilgan natyurmortni diqqat bilan kuzatib, uni tahlil qilib olinadi. Kompozitsiyani ijodiy masalalari, asosan postanovka (natyurmort tuzish) qo'yish vaqtida hal etilgan bo'ladi ya'ni natyurmort qismlari o'rtasida uzviy bog'lanish bo'lib, hamma narsa birgalikda, yaxlit bo'lib ko'zga yaqqol tashlanib turmog'i

lozim. Lekin unga har xil nuqtalardan qaraganda umumiy ko'rinishi ham, qismlarning o'lchamlari va nisbatlari ham o'zgarib boshqacharoq ko'rinib qolganini sezamiz. Demak, natyurmort tasvirining ta'sirchan bo'lishi va undan ko'zlangan maqsadga to'la erishish uchun qo'yilgan natyurmortga nisbatan eng qulay va qiziqarli ko'rish nuqtasini topish kerak. Buning uchun har hil joyga o'tirib yoki turib, naturaga yaqinlashib yoki uzoqlashib qarab ko'rish kerak bo'ladi. Bunda har gal kuzatuvchi ko'zlarning balandligi o'zgarishi bilan birga ufq chizig'i va ko'rish markazi o'zgarib turadi. Qo'yilgan natyurmortga nisbatan eng yaxshi ko'rish nuqtasini topib, ufq chizig'ini shunga muvofiq belgilab olish muhim ish bo'lib, tasvirning umumiy kompozitsiyasi ko'p jixatdan unga bog'liq. Natyurmort tasvirini surat tekisligida to'g'ri joylashtirish bir qator masalalarni hal etishni talab qiladi. Shuning uchun ishni boshlashdan oldin bir necha hajmli xomaki rasm bajarib ko'rish maqsadga muvofiqdir.



Chizilgan eskizlardan eng muvaffaqiyatli chiqqanini tanlab, shu asosda katta original tasvir boshlanadi. Endi originalni surat tekisligiga nisbatan qanday kattalikda olinishiga alohida e'tibor berilishi loim, chunki ayrim narsalar tasviri juda kata bo'lib ketib, hamma predmetlar sig'may qolishi mumkin. Yoki narsalar tasvir formatga nisbatan juda kichik bo'lib qolib trofida bo'sh joy qoldirilsa, natyurmortning ma'nodorligi yo'qoladi.

Tasvirni qog'oz yuzasida to'g'ri joylashtirish masalasi hal bo'lgan har qanday tasviriy san'at asarining poydevori bo'lgan chiziqli rasmni boshlasa bo'ladi. Qo'yilgan natyurmortning umumiy holati, prinsiplari aniqlangach, qog'oz yuzasida uning umumiy o'lchamlari yengilligi va balandligi yengil-yelpi chiziqlar bilan belgilab chiqiladi. Har bir narsaning umumiy shakli qismlarning nisbiy o'lchamlari va predmetlarning asoslari orasidagi masofalar ham ohista chiziladi. Bu ishlar qalamni qog'oz yuzasida tez-tez yurg'azib, natyurmort bilan taqqoslab turib bajariladi. Har qaysi predmetning o'zicha shakli, kata-kichikligi, tutgan o'rni aniq bo'lgandan keyin, ularning tuzilishini tahlil qilib, sinchiklab kuzatib, u shakllardagi perspektiv qisqarishlar kuzatiladi. Predmetlarning shaklini tahlil qilish chiziqli rasm ishlashda g'oyat ma'suliyatli bosqichdir, chunki u rasm ishlovidan mantiqiy fikr yuritishni va obrazli tasavvur qilishni talab etadi.

Predmetlarning surat teksligida joylashtirish vaqtida, albatta ularning asoslarini to'la chizib chiqish kerak. Bu tadbir har qaysi predmetning o'rnini va alohida narsalar o'rtasida qolgan masofani to'g'ri ifodalashga yordam beradi. Shunday qilinganda ba'zi narsalarning «muallaq» bo'lib qolishi yoki bir narsaning ikkinchisiga o'yib kirgandek tuyulib qolishiga yo'l qo'ymaydi. Umuman, hajmdor narsalarning rasmini chizganda, ularni shishadan yasalgan tiniq deb faraz qilib, uning ko'zga yaqqol ko'rinmaydigan jihatlarini ham bilinar-bilinmas chizib chiqish maqsadga muvofiqdir. Chiziqlar vositasida hajmlarning chegaralarini belgilash bilan birga ularning shakllarini yanada aniqroq bo'lishiga erishishning yana bir yo'li yirik shtrixlar bilan shaxsiy va tushuvchi soyalarni qoralab olishdir. Bu tadbir narsalarning mutanosibligini yanada ta'kidlash va shakllarini aniqroq tasvirlashga olib keladi.



Natyurmortdagi narsalarning fazoviy holati va hajmini realistik tarzda tasvirlash uchun ularning qay holatda turganini aniq chizish bilan bir qatorda perspektiva va yorug'-soya qonunlarini puxta bilish va ularni amalda qo'llash yuzasidan ma'lum ishlar olib borish kerak bo'ladi. Predmetlar shaxsiy va tushuvchi soyalarning chegaralari topilgandan keyin, har bir narsaning yorug' soya, siyrak soyalari birma-bir ranglar yordamida ishlab chiqishga o'tiladi. Har bir narsaning hajmdorligi va materialni haqqoniy qilib tasvirlash uchun natura bilan tasvirdagi soya, yarim soya va reflekslarning nisbiy munosibligiga erishishga harakat qilish kerak. Buning uchun esa natyurmortdagi eng to'q soya yorug' yerlarni aniqlab olib ana shu eng to'q soyadan boshlash lozim. Ana shu paytda natyurmort rangiga xos umumiy och to'qlikni to'g'ri aniqlash g'oyatda muhim. Buning uchun natyurmort yoniga bironta qop-qora narsa qo'yib qaralsa, eng quyuq soya ham unga nisbatan oqishroq bo'lib ko'rinadi. Agar shu narsa natyurmort tarkibida bo'lganda, qoralashni o'shandan boshlash va qora qalamni bor imkoniyatidan foydalanish lozim bo'ladi. Natyurmortdagi hech bir narsa qoraligi baxmalga teng kelmasligini hisobga olib, soyalarni bir oz kuchsizroq tonlarda berishimiz kerak. Xudi shu yo'l bilan natyurmortdagi eng yorug' yerning och-to'qligi darajasini aniqlasa bo'ladi.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari (2-ilova)

«Uygʻonish davri» degan iborani ilk bor italyan rassomi va sanʼatshunosi ... tomonidan aytilgan?	*Jorjo Vazare	Leonardo da Vinchi	Jotto
«Oʻrmonchi» nomini olgan rassomning familiyasi qaysi qatorda toʻgʻri koʻrsatilgan?	*Shishkin	Savrasov	Repin
XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rus Badiiy akademiyasida pedagoglik qilgan rassomning nomi nima?	*P.Chistyakov	Rubin	Shishkin
Avtoportret nima?	*Rassom oʻz-oʻzini tasvirlashi	Doʻstlar portreti	Texnik tasvir
Akademik portret nima?	*oʻrganish maqsadida chizilgan portret	ijodiy portret	xayoliy portret

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda oʻquv jarayonini baxs-munozarali oʻtkazishda qoʻllaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni oʻz fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va oʻz fikrini boshqalarga oʻtkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini oʻratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qogʻozga oʻz fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab koʻrsating

M – koʻrsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Savol	“Rangtasvir” faning predmeti va mazmuni toʻgʻrisida nimalarni bilasiz?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab koʻrsating	
(M) Koʻrsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

Adabiyotlar roʻyxati (3-ilova):

1. S.Abdirasilov, N.Tolipov Rangtasvir. Innovatsiya ziyo, T. 2019
2. S.Abdirasilov, N.Tolipov Rangtasvir. “Poligraf”, T. 2017
3. Gʻ.Abduraxmonov. Kompozitsiya asoslari. “Iqtisod-moliya”, T. 2010

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdnu.uz
2. www.ZivoNet.Uz
3. www.edu.uz
4. tdpu-internet.ped

Mavzu yuzasidan uyga vazifa (**4-ilova**):

Uy-ro'zg'or buyumlaridan tashkil topgan natyurmort rasmini qog'oz yuzasida to'g'ri tasvirlash. Rasm ishlashda uning konstruktiv tuzilishlarini hisobga olish. Tasvirning yorug' va soyalarini aniqlab, rang berish.

Tasvirlash jarayonida alohida narsalarni va ularning qismlarini katta-kichikligini har doim bir-biriga taqqoslab borish zarur. Rang bilan ishlash jarayonida shakllarning xarakteriga aniqlik kiritib borish zarur. Tasvirlash jarayonida ishni boshidan oxirigacha, albatta, metodik ketma-ketlikka rioya qilish muhimdir.

5-mavzu	Kontrast fonda turli shaklli va har xil fakturalii buyumlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini bajarish
----------------	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

MASHG'ULOTNING O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Vaqti – 16 soat		talbalar soni _____ nafar
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>		amaliy
<i>Mashg'ulotining rejasi</i>	<div>1. Kontrast fonda turli shaklli va har xil fakturalii buyumlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini bajarish mavzusi asosida ishlash masalalari. 1-ilova</div> <div>2. Rangtasvirga qo'yiladigan talablar. 2-ilova</div> <div>3. “FSMU” uslubi. 3-ilova</div> <div>4. Adabiyotlar bilan ishlash 4-ilova</div>	
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarga Kontrast fonda turli shaklli va har xil fakturalii buyumlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini bajarish ko'nikma va malakalarini beradi. Eskizlar ishlashni o'rgatadi		
<i>Pedagogik vazifalar:</i> Qisqa muddatda uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish haqida tushuncha beradi. Rangtasvirda mavzu asosida ishlash usullarini o'rgatadi. Rangtasvirga qo'yiladigan talablarni o'rgatish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Qisqa muddatda uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish haqida tushunchaga ega bo'ladi. Rangtasvir asosida ishlashni o'rganadi. Rangtasvirga qo'yiladigan talablarni bilib oladi	
<i>O'qitish uslubi va texnikasi</i>		Amaliy ish, master klass texnologiyasi
<i>O'qitish vositalari</i>		O'quv uslubiy kompleks, o'quv qo'llanma, tarqatma materiallar, ko'rgazmali plakatlari, slaydlar.
<i>O'qitish shakli</i>		Guruh bo'lib ishlash.

<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Kompyuter va multimediali vositalar bilan jihozlangan auditoriya va asbob-uskuna, materiallar bilan jihozlangan ustaxona
<i>Monitoring va baholash</i>	Mashg'ulot bo'yicha savol-javob, tahlil natijalari.



AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Magistr
1-bosqich Kirish	1. Rangtasvirda mavzu asosida natyurmort ishlash masalalari haqida ma'lumot beradi. <i>1-ilova</i>	Rangda mavzu asosida natyurmort ishlash masalalari haqida ma'lumot beradi
2-bosqich. Asosiy	2. Ekranda natyurmortga qo'yiladigan talablar haqida namoyish qiladi va ularga qisqacha ta'rif beradi (2-ilova).	Ekranga rangtasvir faniga qo'yiladigan talablar haqida namoyishni ko'radi.
	3.Mavzu bo'yicha Adabiyotlar bilan ishlash uchun ro'yhat beradi (3-ilova)	3.Mavzu bo'yicha Adabiyotlar bilan tanishadi.
3-bosqich Yakuniy	Darsga yakun yasab, mavzu bo'yicha uyga vazifa beradi	Mavzu bo'yicha uyga vazifa oladilar.

Kontrast fonda turli shaklli va har xil fakturalii buyumlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini bajarish haqida umumiy tushuncha (*1-ilova*)

Sovuq tusda berilgan sodda natyurmortni tasvirlash dastlabki ta'lim bosqichlarida bajarish orqali o'zlashtirish mumkin. Masalan, N.Tenning "Natyurmort" asari misol bo'la oladi. Unda mahoratli bo'yoq surtmasi, kolorit monandligi va shakl plastikasini kuzatish mumkin. Ular orqali rangtasvirning asosiy qonuniyatlarini tez va qulay o'zlashtirish mumkin. Ya'ni, perspektiv va konstruktiv qurilish, shaklning soya-yorug'ligi va rangda tasvirlanishi, tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy uzoqlashishdagi holati va materialligi, tus va rang munosabatlari, manzara va interer, inson boshi va qomatini tasvirlashdagi birlik va uyg'unlik hisoblanadi.

Natyurmortni amaliy tasvirlashning dastlabki bosqichida biroz soddaroq so'ngra esa narsa va buyumlarning bir guruhini tasvirlash kerak. Narsalarning bir guruh yig'ilganini tasvirlash uchun natyurmort kompozitsiyasini to'g'ri tashkil etish muhimdir. U ikki jihat asosida tuziladi: natura qo'yilmasini tashkiliy qismi (narsalarni tanlay bilish va ularni kompozitsion chiroyli joylashtirish) naturaga nisbatan ko'rish nuqtasini aniqlash va qog'oz yuzasida qo'yilmani tasvirlash.



O'quv natyurmort qo'yilmasini tuzishda quyidagi qonun-qoidalariga rioya qilish kerak. Har bir o'quv natyurmortning mazmuni rangtasvir dasturida ko'rsatilganidek aniq maqsad va vazifaga ega bo'lishi kerak. Talabalar natura qo'yilmasini tasvirlash jarayonida aynan qanday nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini tasavvur eta olishimiz kerak. O'quv vazifalardan tashqari, natyurmort estetik talablarga ham javob berishi kerak: buyum va narsalar aynan mavzuga oid bo'lishi, mazmun jihatdan ma'noli va ta'sirchan bo'lishi va ma'lum g'oyani ilgari surishi kerak.

O'quv natyurmorti ijodiy natyurmortdan vazifasi bilan farqlanadi: o'quv vazifa muvaffaqiyatli echim topishi uchun narsalar saralanadi, guruhlashtiriladi va shunday yoritiladiki, qo'yilma natijali yakunlanadi. O'quv natyurmortida biroz bo'lsada shartli olinishiga imkon yaratiladi.

